



ICHKI ISHLAR ORGANLARI HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTIKASI BO'LINMALARINING FAOLIYATINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA VAZIFALARINI TAKOMILLASHTIRISH BORASIDAGI ISLOHOTLAR

Temirov Umarbek Dilshodovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15287220>

ARTICLE INFO

Received: 18th April 2025

Accepted: 20th April 2025

Published: 26th April 2025

KEYWORDS

Ichki ishlar organlari, huquqbuzarliklar profilaktikasi, faoliyat yo'nalishlari, vazifalari, jinoyatchilikni oldini olish, huquqiy ta'lim, ijtimoiy xavfsizlik, texnologik yangilanishlar, profilaktik tadbirlar, aholi bilan ishlash, ommaviy axborot vositalari, huquqni muhofaza qilish tizimi, islohotlar.

ABSTRACT

Ushbu maqola Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarining faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vazifalarini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Maqolada, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlari, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashdagi o'rni va ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan strategiyalar ko'rib chiqiladi. Asosiy yo'nalishlar sifatida huquqiy ta'lim va ma'rifat, texnologiyalarni joriy etish, jinoyatchilikni kamaytirish, aholi bilan ishlash va mahalliy profilaktik tadbirlar tashkil etish kabilar ta'kidlanadi. Maqolada joriy yildagi statistik ma'lumotlar va ichki ishlar organlarida amalga oshirilgan islohotlar natijalari ham yoritiladi. Islohotlar, ayniqsa, texnologik yangilanishlar, video kuzatuv tizimlarining kengaytirilishi va huquqbuzarliklarni aniqlash tizimlarining avtomatlashtirilishi orqali huquqbuzarliklarni oldini olishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shuningdek maqolada, huquqbuzarliklarni oldini olishda ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olish, malakali kadrlar tayyorlash va samarali profilaktika tadbirlarini o'tkazish zarurligi ko'rsatilgan. Bundan tashqari, maqola huquqbuzarliklar profilaktikasini takomillashtirish bo'yicha istiqboldagi chora-tadbirlar va ularning davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikka qo'shgan hissasini baholashga qaratilgan. U nafaqat ichki ishlar organlari faoliyatini tahlil qilish, balki huquqni muhofaza qilish tizimini yanada samarali ishlatish bo'yicha takliflarni ham o'z ichiga oladi.

Huquqbuzarliklarni oldini olish — davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari bu yo'nalishda beqiyos rol o'ynaydi. Ushbu bo'linmalar, jinoyatchilikni kamaytirish, tartibni saqlash va ijtimoiy xavfsizlikni oshirish maqsadida keng qamrovli va tizimli ishlarga jalb qilingan. Biroq, dunyoqarash va texnologiyalarning tez rivojlanishi, ijtimoiy-siyosiy sharoitlarning o'zgarishi ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatini doimiy ravishda takomillashtirishni talab qiladi. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalarining faoliyatini takomillashtirish, asosan, huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikni kamaytirish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan. Bunday bo'linmalar davlat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ularning faoliyatini takomillashtirish uchun bir nechta asosiy yo'nalishlar va vazifalarni ko'rib chiqish uchun Profilaktik tadbirlar va ma'rifat ishlarini kuchaytirish zarur, va bu borada quyidagilarni tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Huquqbuzarliklarning oldini olish uchun aholiga huquqiy ta'lim berish va ma'rifat ishlarini kengaytirish. Bu tadbirlar, ayniqsa, yoshlar o'rtasida jinoyatchilikni kamaytirishga yordam beradi. Hamma turdagi jinoyatlarni oldini olishga qaratilgan treninglar, seminarlar va targ'ibot ishlarini o'tkazish ham samarali hisoblanmoqda. Shuningdek, Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali jinoyatlarning oldini olish bo'yicha maxsus dasturlar va materiallar yaratish va bu yordamida jamoatchilikni huquqiy jihatdan o'rgatish va ogohlikni oshirish mumkin.

Hozirda Ommaviy axborot vositalari keng rivojlanganligini inobatga olib huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha targ'ibot materiallarini tarqatishda faol ishlatish ham mumkin. Kriminalistik texnologiyalarni rivojlantirish borasida esa huquqbuzarliklarni oldini olishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni keng targ'ib qila olish imkonini yaratish mumkin. Masalan, video kuzatuv tizimlarini joriy etish, onlayn monitoring va analitik tizimlarni ishlab chiqish kabilar. Huquqbuzarliklarni targ'ib qilishni kamaytirish sohasida esa jinoyatlarning sabablarini tahlil qilib, ularni kamaytirishga qaratilgan dasturlar ishlab chiqish, bu dasturlar huquqbuzarliklarni keltirib chiqaruvchi ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik omillarni o'z ichiga olishi kerak. Ayrim hududlarda yuqori jinoyat darajasini kamaytirish uchun maqsadli profilaktika ishlari olib boorish ham maqsadga muvofiqdir.

Qonuniylikni mustahkamlash va huquqni muhofaza qilish tizimini samarali ishlatish uchun esa, ichki ishlar organlari va huquqni muhofaza qilish tizimlari o'rtasida hamkorlikni yanada kuchaytirish, barcha davlat idoralari o'rtasidagi samarali axborot almashish tizimini tashkil etish zarur, shuningdek huquqbuzarliklarni oldini olishda keng jamoatchilikni jalb qilish va aholi bilan doimiy aloqada bo'lish ham talab etiladi. Jinoyatchilikka moyil bo'lgan shaxslar bilan ishlashda, quyidagilarni inobatga olgan holda ish yuritishni zamonimiz talab etmoqda bularga: qayta jinoyat qilish xavfi yuqori bo'lgan shaxslarni aniqlash va ular bilan profilaktik ishlarda faol ishtirok etish, ijtimoiy yordam, psixologik qo'llab-quvvatlash va rehabilitatsiya tizimlarini joriy etish kabilar va yoshlarga, ayniqsa, jinoyatchilikka moyil bo'lish ehtimoli yuqori guruhlarga maxsus rehabilitatsiya va maslahat xizmatlarini taqdim etishlar kiradi. Sotsial-iqtisodiy omillarni hisobga olishga, ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklarga duchor bo'lgan aholi qatlamlari bilan ishlash, shu jumladan, ishsizlik, qashshoqlik, oilaviy muammolarni hal qilish orqali huquqbuzarliklarni oldini olish samarali hisoblanadi. Hukumat va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish, jinoyatchilikka qarshi kurashishda davlat, jamoat tashkilotlari va fuqarolar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, huquqbuzarliklarni oldini olish bo'yicha mahalliy hokimiyatlar va jamoat tashkilotlari bilan yaqindan ishlash hukumat va jamoatchilik o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishning eng ustuvor taktikasini namoyon qiladi. Profilaktik xizmatlar va islohotlarni muvofiqlashtirishda, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklarni oldini olish bo'linmalarining faoliyatini samarali boshqarish va muvofiqlashtirish, va shu maqsadda, maxsus monitoring tizimlarini yaratish va uning samaradorligini oshirish, ichki ishlar organlari tomonidan huquqbuzarliklarni profilaktika qilishga qaratilgan harakatlar, asosan, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy va psixologik

omillarni hisobga olishni taqozo etadi. Profilaktik ishlarni takomillashtirish orqali jinoyatchilikni kamaytirish va xavfsizlikni ta'minlash imkoniyati oshadi. Bunday yondashuvlar huquqbuzarliklarning oldini olish va barqaror jamiyatni qurishda muhim ahamiyatga ega.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari tomonidan olib boriladigan faoliyatning asosiy yo'nalishlarini quyidagicha belgilash mumkin: Ijtimoiy ta'lim va huquqiy ma'rifat, Aholi o'rtasida huquqiy bilimlarni oshirish, jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan ma'rifat ishlarini amalga oshirish, shu jumladan, yoshlar orasida huquqbuzarliklarning oldini olishga yo'naltirilgan maxsus dasturlarni ishlab chiqish zarur. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish: Jinoyatlarni oldini olishda ommaviy axborot vositalarini va ijtimoiy tarmoqlarni samarali ishlatish. Bu vositalar orqali jinoyatga qarshi axborot tarqatish, yurtimizdagi huquqbuzarliklarning oldini olishda keng jamoatchilikni jalb qilish mumkin. Kriminalistik texnologiyalarni rivojlantirish: Jinoyatchilikni oldini olishda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish kerak. Videokuzatuv tizimlari, onlayn monitoring tizimlari va analitik yondashuvlar yordamida jinoyatlarning oldini olish va aniqlikni oshirish mumkin. Mahalliy va mintaqaviy profilaktik tadbirlar: Jinoyatlarning turli hududlarda tarqalishi va xususiyatlari farq qiladi. Shuning uchun, har bir hududda maxsus profilaktik dasturlar ishlab chiqilishi kerak. Mahalliy aholi bilan ishlashda aholining ehtiyojlarini va ijtimoiy muammolarini hisobga olish muhimdir.

Faoliyatni takomillashtirishning asosiy vazifalari: Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarni oldini olish bo'linmalarining samaradorligini oshirish uchun bir qator vazifalar mavjud. Ijtimoiy-iqtisodiy omillarni hisobga olish, Ijtimoiy va iqtisodiy inqirozlar, ishsizlik, kambag'allik kabi omillar jinoyatchilikka olib keladi. Shu bois, bu omillarni oldini olishga qaratilgan maxsus dasturlar ishlab chiqish zarur. Kriminalistik ta'lim va malaka oshirishda esa, Ichki ishlar organlari xodimlarining huquqbuzarliklarni oldini olish borasida bilim va malakalarini doimiy ravishda oshirish kerak. Bu maqsadda, zamonaviy kurslar va treninglar tashkil etilishi lozim. Aholi bilan yaqindan ishlashda, Jamoat joylarida xavfsizlikni ta'minlash, aholining ichki ishlar organlariga bo'lgan ishonchini oshirish, huquqbuzarliklar bilan bog'liq muammolarga samarali yondashuvni amalga oshirish uchun aholi bilan hamkorlik qilish zarur. 2024-yilga kelib, ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari quyidagi asosiy yo'nalishlarda faoliyat yuritdi. Bularga misol qilib quyidagilarni ayta olamiz, jinoyatchilikni kamaytirishning o'zi, 2024-yil davomida barcha hududlarda jinoyatchilik ko'rsatkichlari 15% ga kamayishiga olib keldi. Ayniqsa, voyaga etmaganlar orasida jinoyatlarning kamayishi kuzatildi. Profilaktik tadbirlarning samaradorligida esa jami 5000 dan ortiq profilaktik tadbirlar o'tkazilib, 2 milliondan ortiq fuqarolar huquqiy ta'limdan o'tgan. Kriminalistik tizimlarning takomillashuvi ham chetda qolmadi, Video kuzatuv tizimlari 20% ga kengaytirildi va 1000 dan ortiq yangi videokuzatuv kameralari o'rnatildi.

Islahotlar va ularning samaralarida shuni ko'rishimiz mumkinki, bugungi kunda ichki ishlar organlarida olib borilayotgan islohotlar huquqbuzarliklarning oldini olishda samarali natijalarga olib kelmoqda. Shulardan ba'zilari texnologik yangilanishlardir. Misol uchun, Ichki ishlar organlarida elektron hujjat aylanishi va avtomatlashtirilgan monitoring tizimlari joriy etildi. Hozirda bu tizimlar huquqbuzarliklarni tez va aniq aniqlashga yordam bermoqda. Qonuniylikni mustahkamlash borasida esa, Huquqni muhofaza qilish tizimining ichki tizimini yanada mustahkamlash va bu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun yangi o'quv markazlari tashkil etildi. Ichki ishlar organlari huquqbuzarliklarni oldini olish bo'linmalarining faoliyatini takomillashtirish, nafaqat ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash, balki davlatning umumiy barqarorligini saqlashga ham yordam beradi. Buning uchun profilaktik ishlar kengaytirilishi, zamonaviy texnologiyalar joriy etilishi va aholiga huquqiy ta'lim berish samarali yo'llar sifatida qaralishi kerak. Shu bilan birga, hududlarga xos muammolarni hal qilish va zamonaviy islohotlarni amalga oshirish bugungi kunda dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar Vazirligi rasmiy veb-sayti

2. O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi, 2024 yilgi statistika ma'lumotlari
3. "Jinoyatchilik va uning oldini olish" nomli ilmiy maqolalar to'plami, 2023 yil
4. O'zbekiston huquqshunoslarining ilmiy tadqiqotlari, 2024-yil
5. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi — O'zbekistonning qonun va normativ-huquqiy hujjatlarini rasmiy sayti www.lex.uz
6. Rasmiy O'zbekiston qonunlari portalidan

